

Bilet №1
Talaba uchun

Talaba _____ **gruppa** _____ **fakultet** _____

28 yoshli bemor S. 3 yil davomidagi bepustlikka, qorin pastki soxasidagi belga tarqaluvchi og'riqqa, ta'sirchanlik, mexnat qobiliyatini pasayishiga shikoyat qilib keldi. Tipografiyada ishlaydi.

Anamnezidan: Hayzi 14 yoshda kelgan, regulyar, og'riqsiz, xar 28-30 kunda 3-4 kundan. Jinsiy hayot 20 yoshdan. Nikoh 1. Homiladorlik 2ta, ulardan 1ta tug'ruq, 1ta Homiladorlikning o'z-o'zidan tushishi kuzatilgan va bachadon bo'shlig'i qirib tozalangan, shundan so'ng 3-sutkada tana haroratining ko'tarilishi, jinsiy yo'llardan yiringli ajralmalar kelishi kuzatilgan. Vrachga murojaat etmagan, uyda o'zi yalliglanishga qarshi antibakterial davo olgan. Oxirgi xayz bemor tashrifidan 3 kun oldin tugagan, og'rikli.

Ob'ektiv: Umumiy ahvoli qoniqarli, AQB 110/70, Ps 80 zarba minutiga. Teri va kurinadigan shillik kavatlar och pushti rangli, tana tuzilishi giperstenik tip, tuklanish ayol tipida.

Kushimcha ma'lumotlar:

Ko'zguda ko'ruv: qin va bachadon bo'yni shilliq qavati toza, tashqi bo'g'zi tirqishsimon, ajralmalar toza.

Bimanual ko'rik: Qini tuqqan ayollarga xos, bachadon bo'yni silindrik shaklda. Bachadon o'lchami 56x48x32mm, harakatchanligi chegaralangan, og'riqsiz. Ortiqlar sohasi tortilgan, og'riqsiz. Gumbazlar chuqur. Parametriy infiltratsiyalanmagan.

Savol/javoblar	балл
1.Qorin pastki sohasidagi belga tarqaluvchi og'riq qaysi ginekologik kasalliklarda uchraydi?	10
2.Tashxisni aniqlashtirish uchun qanday savollar berasiz? Ob'ektiv ko'rik va tekshiruv nimalardan iborat bo'ladi?	40
3.Tashxisingiz?	20
4.Sizning taktikangiz?	10
5.Davolashni aniqlang. Kasallikning profilaktika va dispanserizatsiyasi	20
Xammasi	100

Bilet №2
Talaba uchun

Talaba _____ **grupp**a _____ **fakultet** _____

Bemor M. 24 yosh, jinsiy a'zolaridan 4 oydan beri ajralayotgan yiringli ajralmaga, 2 oydan beri jinsiy aloqadan so'ng ajraluvchi qonli ajralmaga va umumiy holsizlik shikoyatlari bilan murojaat qildi. **Anamnezidan:** Hayz 14 yoshdan, regulyar, og'riqsiz. Oxirgi hayz – tashrifdan 10 kun oldin, og'riqli. Jinsiy hayot 19 yoshdan. Homiladorlik 2 marta, shulardan 1 – tug'ruq, 2 - artifitsial abort. Vrachga murojaat qilmagan, davo olmagan, tarbiyachi bo'lib ishlaydi.

Ob'ektiv: Umumiy ahvoli qoniqarli. AQB 110/70, Ps 80ta/min. Palpatsiyada qorin yumshoq, og'riqsiz, qorinparda ta'sirlanish simptomlari yo'q.

Ko'zgudagi ko'rik: Bachadon bo'yni tashqi bo'g'izida 1,5 x 1,5smli shilliq qavat giperemiyasi, yuzasi donador, yiringli ajralma bilan qoplangan.

Bimanual ko'rik: Bachadon bo'yni silindrik shaklda, tashqi bo'g'iz yopiq. Bachadon tanasi va ortiqlari patologik o'zgarishlarsiz

Savol/javoblar	
1.Ushbu belgilar qaysi kasalliklar uchun xos?	20
2.Tashxisni aniqlashtirish uchun qanday savollar berasiz? Ob'ektiv ko'rik va tekshiruv nimalardan iborat bo'ladi?	40
3.Tashxisingiz?	20
4.Sizning taktikangiz?	10
5.Davolashni aniqlang. Kasallikning profilaktika va dispanserizatsiyasi	20
Xammasi	

Bilet №3
Talaba uchun

Talaba _____ **gruppa** _____ **fakultet** _____

Oilaviy poliklinikaga shifokor ko'rigiga 32 yoshli bemor qorinning pastki sohasida bel sohasiga irradiatsiyalanuvchi doimiy to'mtoq, simillovchi og'riqlarga, holsizlik, davriy bosh aylanishlar, qo'zg'aluvchanlik, mehnatga layoqatning susayishiga shikoyatlar bilan murojaat etdi.

Bir yil oldin artifitsial abortdan so'ng tana haroratining ko'tarilishi, qorin pastida og'riq va jinsiy yo'llardan yiringli ajrilmalar kuzatilganligi sababli statsionarda davolangan. Shundan so'ng yuqoridagi shikoyatlar bezovta qila boshlagan. Og'riq sovuq qotish va hayzdan keyin kuchayadi. Bozorda sotuvchi bo'lib ishlaydi.

Akusher-ginekologik anamnez: Hayz 14 yoshdan, regulyar, og'riqsiz. Oxirgi hayz tashrifdan 5 kun oldin, og'riqli. Jinsiy hayot 19 yoshdan. Nikoh 2. Homiladorliklar 4ta, tug'ruqlar 2ta, sun'iy abort 2ta.

Ob'ektiv: bemorning umumiy ahvoli qoniqarli, teri va shilliq qavatlar rangpar. AQB 110/80mm.sim.us., puls minutiga 80ta. Tana harorati 36,4°S.

Palpatsiyada qorin yumshoq, qorinning pastki qismi og'riqli, qorin pardasining ta'sirlanish simptomlari yo'q.

Ko'zgudagi ko'rik: qin va bachadon bo'yni shilliq qavati toza, tashqi bo'g'zi tirqishsimon, ajrilmalar toza.

Bimanual ko'rik: Qini tuqqan ayollarga xos, bachadon bo'yni silindrik shaklda. Bachadon o'lchami 56x48x32mm, harakatchanligi chegaralangan, og'riqsiz. Ortiqlar sohasi tortilgan, og'riqsiz. Gumbazlar chuqur. Parametriy infiltratsiyalanmagan.QVP ga UASh ko'rigiga 32 yoshli bemor qorinning pastki sohasida bel sohasiga irradiatsiyalanuvchi doimiy to'mtoq og'riqlar kuchayganligiga, tana haroratining ko'tarilishiga, holsizlik, davriy bosh aylanishlar, qo'zg'aluvchanlik, mehnatga layoqatning susayishiga shikoyatlar bilan murojaat etdi.

Savol/javoblar	Ball
1.Bel sohasidagi doimiy og'riq qaysi kasalliklarda kuzatiladi?	10
2.Tashxisni aniqlashtirish uchun qanday savollar berasiz? Ob'ektiv ko'rik va tekshiruv nimalardan iborat bo'ladi?	40
3.Tashxisingiz?	20
4.Sizning taktikangiz?	10
5.Davolashni aniqlang. Kasallikning profilaktika va dispanserizatsiyasi	20
Xammasi	

Bilet №4
Talaba uchun

Talaba _____ grupp _____ fakultet _____

T. Ismli ayol Oilaviy poliklinikaga qorin pastida tortuvchi og'rik borligi, tana harorati 38,5 gradusgacha ko'tarilganligi, xolsizlikka, bosh og'rishiga, jinsiy yo'llardan ajralma kelishiga shikoyat qilib murojaat qildi.

Anamnesis morbi: Tug'ruqxonadan 3 kun avval chiqarilgan, u yerda 5 kun yotgan. Chiqqan paytida ahvoli qoniqli bo'lgan. Tashrifdan 1 kun oldin qorin pastida og'riq paydo bo'lib, harorati 37,3 gradusgacha ko'tarilgan.

Akusherlik anamnezi: Ushbu tug'rug'i birinchisi. Homiladorlik davrida qinidan ajralmalar kelgan, davolangan. Tug'ruqda yo'ldoshi butunligiga shubxa bo'lgani sababli bachadon ichi qo'l bilan tekshirilgan, plasenta qoldiqlari olib tashlangan.

Ob'ektiv xolati: Terisi rangpar, AQB 100/80; 100/70 mm.smb. ust. da, pulsi minutiga 100ta, harorati 38,0 gradus. Qorni yumshoq, pastki qismlarida og'riq bor.

Kushimcha ma'lumotlar.

Bimanual tekshiruv: Bachadon bo'yni shakllangan, servikal kanalga bir barmoq sig'adi. Bachadon tanasi 8 haftalik Homiladorlikka teng kattalashgan, yumshoq konsistensiyali, paypaslaganda og'riqli, bachadon ortiqlari qo'lga ilinmaydi, soxasi og'riqsiz. Qindan kelayotgan ajralmalar shilliqsimon – yiringli, xidli.

Savol/javoblar	Ball
1.Qorin pastida tortuvchi og'riq va harorat ko'tarilishi qaysi kasalliklarga hos?	10
2.Tashxisni aniqlashtirish uchun qanday savollar berasiz? Ob'ektiv ko'rik va tekshiruv nimalardan iborat bo'ladi?	40
3.Tashxisingiz?	20
4.Sizning taktikangiz?	10
5.Davolashni aniqlang. Kasallikning profilaktika va dispanserizatsiyasi	20
Xammasi	

Bilet №5
Tadaba uchun

Talaba _____ **gruppa** _____ **fakultet** _____

A. Ismli ayol Oilaviy poliklinikaga chap ko'krak bezida og'riq paydo bo'lgani, tana harorati 38,5 gradusga ko'tarilgani, xolsizligi, axvoli yomonlashganiga shikoyat qilib murojaat qildi.

Anamnesis morbi: Ayol uch kun avval tug'ruqxonadan chiqarilgan, tug'ruqxonada 5 kun bo'lgan. Chiqish paytida xolati qoniqarli bo'lgan. Ushbu tug'rug'i – 1 chisi. Tashrifdan 1 kun oldin chap ko'krak bezida og'riq paydo bo'lgan, og'riq tufayli ko'kragi bilan emizmagan, tana harorati 37,3 gacha ko'tarilgan.

Ob'ektiv xolati: Teri qoplamlari rangpar, pulsi minutiga 105ta, tana harorati 38,5°S; AQB 100/80; 100/70 mm.smb. ust.da.

Kushimcha ma'lumotlar.

Chap ko'kragi bir oz kattalashgan, paypaslab ko'rilganda og'riq sezadi. Tashqi yuqori kvadrantida konturlari noanik infiltrat bor, paypaslaganda og'riqli, taranglashgan. Bosib ko'rilganda ko'krak so'rg'ichidan sut chiqmoqda.

Savol/javoblar	Ball
1.Ko'krak bezida og'riq va harorat ko'tarilishi qaysi kasalliklarda uchraydi?	10
2.Tashxisni aniqlashtirish uchun qanday savollar berasiz? Ob'ektiv ko'rik va tekshiruv nimalardan iborat bo'ladi?	40
3.Tashxisingiz?	20
4.Sizning taktikangiz?	10
5.Davolashni aniqlang. Kasallikning profilaktika va dispanserizatsiyasi	20
Xammasi	

BILET №6
Talaba uchun
Guruh

Talaba

Fakultet

Oilaviy poliklinikaga 23 yoshli A. birinchi homilador ayol qorin pastida va bel sohasida og‘riqqa shikoyat qilib murojaat qilib keldi.

Qo‘shimcha ma’lumotlar

Homiladorlik muddati 12 hafta, bu rejalashtirilgan homiladorlik bo‘lib, shu vaqtgacha u o‘zini yaxshi his qilgan. 2 kundan beri qorin pastida va bel sohasida og‘riq bezovta qiladi.

Ob‘ektiv ko‘rikda: Umumiy ahvoli qoniqarli. Temperatura - 36,8 S, puls – 82ta/min, AD 110/70mm.HG. st. Teri oqarmagan va quruq. Unda qorin pastida va bel sohasida pastga tortuvchi xarakteridagi og‘riq mavjud. Bachadon o‘lchami Homiladorlik muddatiga mos keladi, bachadon bo‘yni og‘riqsiz va yopiq. Laborator ko‘rsatkichlar: Qonning umumiy tahlili: Hb-110g/l, Er-3,5x10/12l, L-6,4x10/9l, EChT 17 mm/s. Siydikning umumiy tahlili: hajmi 100 ml, solishtirma og‘irligi 1020, oksil yo‘q, leykotsitlar 3-4/1, epiteliy - 1-2/1. Qin ajralmasi mikroskopiysi: leykotsitlar – 3-4/1, epiteliy 4-5/1, gon, trich abs.

Savol/javoblar	Ball
1. 1. Qorin pastida va bel sohasida og‘riq qaysi kasalliklarga xos	10
2. 2. Tashhisni aniqlashtirish uchun qanday savollar berasiz? Ob‘ektiv ko‘rik va tekshiruv nimalardan iborat bo‘ladi?	40
3. 3. Tashxisingiz?	20
4. Sizning taktikangiz?	10
5. Kasallikning profilaktika va dispanserizatsiyasi	20
Jami	

Bilet №7
Talaba uchun
Guruh

Talaba

Fakultet

Oilaviy poliklinikaga 30 yoshli N. qayta homilador ayol qorin pastida va bel sohasida to'lg'oqsimon og'riqqa, qonli ajralmalarga shikoyat qilib keldi.

Qo'shimcha ma'lumotlar

Homiladorlik muddati 10 hafta, bu rejalashtirilgan homiladorlik bo'lib, shu vaqtgacha u o'zini yaxshi his qilgan. Kecha kechqurundan beri qorin pastida va bel sohasida to'lg'oqsimon og'riq, qonli ajralmalar bezovta qiladi. Homiladorlikning 4 haftasida ayol O'RI bilan kasallangan, isitmasi bo'lmagan, davo olmagan.

Ob'ektiv ko'rikda: Umumiy ahvoli qoniqarli. Temperatura - 36,4 S, puls – 86ta/min, AD 100/60mm.HG. st. Teri va shilliq qavatlar pushti. Unda qorin pastida va bel sohasida to'lg'oqsimon og'riq mavjud. Bachadon o'lchami Homiladorlik muddatiga mos keladi, bachadon tanasi tonusi oshgan, bachadon bo'yni og'riqsiz va yopiq, qonli ajralmalar mavjud.

Laborator ko'rsatkichlar: Qonning umumiy tahlili: Hb-95g/l, Er-3,0x10¹²/l, L-6,4x10⁹/l, EChT 10 mm/s. Siydikning umumiy tahlili: hajmi 100 ml, solishtirma og'irligi 1020, oksil yo'q, leykotsitlar 3-4/1, epiteliy - 1-2/1. Qin ajralmasi mikroskopiyasi: leykotsitlar – 3-4/1, epiteliy 4-5/1, gon, trich abs. Bachadon UTT da tonusi oshgan, retroxoreal gematoma 42*60 mm.

Savol/javoblar	Ball
1. Qorin pastida va bel sohasida og'riq qaysi kasalliklarga xos	10
2. Tashhisni aniqlashtirish uchun qanday savollar berasiz? Ob'ektiv ko'rik va tekshiruv nimalardan iborat bo'ladi?	20
3. Tashxisingiz?	30
4.Sizning taktikangiz?	20
5.Kasallikning profilaktika va dispanserizatsiyasi	20
Jami	

Bilet №8
Talaba uchun
Guruh

Fakultet

Talaba

Oilaviy poliklinikaga 30 yoshli N. qayta homilador ayol qorin pastida va bel sohasida to'lg'oqsimon og'riqqa, qonli ajrilmalarga shikoyat qilib keldi.

Qo'shimcha ma'lumotlar

Homiladorlik muddati 10 hafta, bu rejalashtirilgan homiladorlik bo'lib, shu vaqtgacha u o'zini yaxshi his qilgan. Kecha kechqurundan beri qorin pastida va bel sohasida to'lg'oqsimon og'riq, qonli ajrilmalar bezovta qiladi. Homiladorlikning 4 haftasida ayol O'RI bilan kasallangan, isitmasi bo'lmagan, davo olmagan.

Ob'ektiv ko'rikda: Umumiy ahvoli qoniqarli. Temperatura - 36,4 S, puls - 86ta/min, AD 100/60mm.HG.st. Teri va shilliq qavatlar pushti. Unda qorin pastida va bel sohasida to'lg'oqsimon og'riq mavjud. Bachadon o'lchami Homiladorlik muddatiga mos keladi, bachadon tanasi tonusi oshgan, bachadon bo'yni og'riqsiz va yopiq, qonli ajrilmalar mavjud.

Laborator ko'rsatkichlar: Qonning umumiy tahlili: Hb-95g/l, Er-3,0x10¹²/l, L-6,4x10⁹/l, EChT 10 mm/s. Siydikning umumiy tahlili: hajmi 100 ml, solishtirma og'irligi 1020, oksil yo'q, leykotsitlar 3-4/1, epiteliy - 1-2/1. Qin ajralmasi mikroskopiyasi: leykotsitlar - 3-4/1, epiteliy 4-5/1, gon, trich abs. Bachadon UTT da tonusi oshgan, retroxoreal gematoma 42*60 mm.

Savol/javoblar	Ball
1. Qorin pastida va bel sohasida og'riq qaysi kasalliklarga xos	10
2. Tashhisni aniqlashtirish uchun qanday savollar berasiz? Ob'ektiv ko'rik va tekshiruv nimalardan iborat bo'ladi?	20
3. Tashxisingiz?	30
3. Sizning taktikangiz?	20
4.Kasallikning profilaktika va dispanserizatsiyasi	20
Jami	

Bilet №9
Talaba uchun
Guruh

Talaba

Fakultet

Oilaviy poliklinikaga A ismli 27 yoshli bemor qorin pastki qismida va bel sohasida ogʻriqlar, jinsiy yoʻllardan qon ketishi, koʻngil aynashi va ertalablari qusishga shikoyatlar bilan keldi.

Qoʻshimcha maʼlumotlar

Anamnezidan: 10 kundan buyon qorin pastida pastga tortuvchi ogʻriqlar bezovta qilgan. 1 kun oldin kechqurun qonli ajralmalar paydo boʻlgan. 2,5 oydan buyon xayz koʻrmaydi. Homiladorlikdan saqlanmagan. Zararli odatlari yoʻq. Uy bekasi. Homiladorlik 3ta: 1- muddatidal tugʻruq, 2- artifitsial abort asoratsiz oʻtgan.

Obʻektiv: umumiy axvoli qoniqarli. Puls 1minutda 80ta, ritmik. A/D 100/60, 90/60 mm sim.ust. Temperatura - 36,5 C

Koʻzguldagi koʻrik: qin shilliq qavati va bachadon boʻyni sianotik rangda, tashqi boʻgʻiz yoriq koʻrinishda. Ajralmalar qonli kam miqdorda.

Qin koʻrigi: bachadon boʻyni silindrik shaklda, boʻgʻiz yopiq. Bachadon tanasi 8-9 haftalik homiladorlikka mos kattalashgan, tonusi oshgan. Ortiqlari ikki tomonlama aniqlanmaydi. Gumbazlari chuqur, parametriy boʻsh.

Laborator koʻrsatkichlar: qon guruhi O(I), rezus manfiy. Qonning umumiy tahlili: Hb-100g/l, Er-3,2x10¹²/l, L-4,7x10⁹/l, EChT 10 mm/s.

UTT - Bachadon oʻlchamlari 89 X 90X 65 mm, konturlari tekis, struktura Bachadon boʻshligʻida xomila tuxumi aniqlanadi. KTR - 51 mm. Yurak urushi «+». Xorion orqa yon devorda joylashgan. Yoʻldoshni chetida koʻchish joyi aniqlanadi, kattaligi 10 mm. Bachadon tonusi oshgan. Oʻng tuxumdon kattaligi 23x 18 mm gʻovaksimon tuzilishga ega. Chap tuxumdon 24x 21mm, unda sariq tana aniqlanadi.

Savol/javoblar	Ball
1.Qorin pastida va bel sohasida ogʻriq, qonli ajralmalar qaysi kasalliklarga xos	10
1. 2. Tashhisni aniqlashtirish uchun qanday savollar berasiz? Obʻektiv koʻrik va tekshiruv nimalardan iborat boʻladi?	20
3.Tashxisingiz?	30
4.Sizning taktikangiz?	20
5.Kasallikning profilaktika va dispanserizatsiyasi	20
Jami	

Bilet №10
Talaba uchun
Guruh

Talaba

Fakultet

Savol/javoblar	Ball
1.Qorin pastida va bel sohasida og‘riq, qonli ajralmalar qaysi kasalliklarga xos	10
2.Tashhisni aniqlashtirish uchun qanday savollar berasiz? Ob’ektiv ko‘rik va tekshiruv nimalardan iborat bo‘ladi?	20
3.Tashxisingiz?	30
4.Sizning taktikangiz?	20
5.Kasallikning profilaktika va dispanserizatsiyasi	20
Jami	